



## MUQIMIY “SAYOHATNOMA”LARIDA GEOGRAFIK JOYLAR TASVIRI

Ergashev Avazbek Laziz o‘g‘li

ToshDO‘TAU O‘zbek tili va adabiyoti ta’limi fakulteti 2-kurs talabasi

[ergashevavazbek894@gmail.com](mailto:ergashevavazbek894@gmail.com)

*Ilmiy rahbar: F.f.d, prof. Abdullayeva Marg‘uba Dusmiratovna*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14919663>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Muhammad Aminxo‘ja Muqimiyning “Sayohatnoma” asari, unda keltirilgan joy nomlari o‘rganiladi. “Qo‘qondan Farg‘onaga” va “Qo‘qondan Isfaraga” qismlari, ulardagi shahar-qishloqlar o‘rni, joylashuvi hamda shu hududlar bilan bog‘liq voqeal-hodisalar tahlilga tortiladi.

**Kalit so‘zlar.** Muqimi, “Sayohatnoma”, Qo‘qon, Farg‘ona, Isfara, tahlil, badiiy tasvir, qishloq.

**Abstract.** In this article, Muhammad Aminkhoja Mukimi's work "Travel" and the place names mentioned in it are studied. The sections "Kokand to Fergana" and "Kokand to Isfara", the places and locations of cities and villages in them, as well as events related to these areas are analyzed.

**Key words.** Mukimi, “Travel”, Kokand, Ferghana, Isfara, analysis, artistic image, village.

**Аннотация.** В данной статье изучается произведение Мухаммада Аминходжи Мукими «Путешествие» и упомянутые в нем топонимы. Анализируются разделы « от Кокана до Ферганы» и « от Кокана до Исфары», места и расположение городов и сел в них, а также события, связанные с этими территориями.

**Ключевые слова.** Мукими, «Путешественник», Кокан, Фергана, Исфара, анализ, художественный образ, село

### KIRISH

O‘zbek adabiyoti tarixida XVIII-XIX asrlar adabiyoti alohida ajralib turadi. Aynan shu davrlarda yashab, ijod qilgan shoirlar, jumladan, Qo‘qon, Xiva kabi adabiy muhitlarda qalam tebratgan ijodkorlar, ularning izdoshlari tomonidan yaratilgan yuzlab asarlar mumtoz adabiyotimizda yangi sahifa oolib bergan. Bu davr ijodkorlari an‘anaviy janrlarda barakali qalam tebratibgina qolmay, yangi adabiy janrlarning yaratilishiga ham hissa qo‘shdilar. Bu borada otaxon shoirimiz Muqimiyl iiodi ham alohida e’tiborga molik. Negaki, o‘zbek demokratik adabiyotida “Sayohatnoma” janrini Muqimiyl boshlab berdi<sup>1</sup>. Shoир asarlarini o‘qir ekanmiz, uning xalqchil, tili sodda ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Shoирning uslubi ham ayricha, ya’ni uning asarlaridagi qahramonlari xarakteri Gulxaniy “Zarbulmasal”idagi kabi hayvon yoxud qushlarga ko‘chirilmagan, shundoq holicha, ochiq, ro‘yi rost aytilgan. Xususan, “Tanobchilar”, “Sayohatnoma” singari asarlaridagi qahramonlar fe’l-atvori, qilgan ishlari hech qanday “qog‘ozga o‘rash”larsiz tasvir etilgan.

<sup>1</sup> “Muqimiyl. Asarlar to‘plami. 1-tom. O‘zSSR davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1960-yil. 29-b.



## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Shoir “Sayohatnoma”lari tanqidiy-satirik ruhda yozilgan bo‘lib, unda shoir tomonidan sayohat qilingan joylar odamlari, sharoiti, boshqaruv tizimi tasvirlanib, chuqur hajv ostiga olinadi, mahalliy amaldorlarning kirdikorlari fosh etiladi. O‘z davrida katta shov-shuvlarga sabab bo‘lgan asar 3 qismdan iborat bo‘lib, jami 244 misrani tashkil qiladi. Ammo muqimiyyshunos olim Qo‘ldosh Pardayev asar jami 77 band, 308 misradan tashkil topganligi, biroq 16 band, 64 misra she’r joriy nashrlardan tushib qolganligini ta’kidlaydi. Shu sababdan muqimiyyshunoslар “Sayohatnoma”ning asl manbasi haqida biror joyda aniq fikr bildirishmaydi<sup>2</sup>.

Asar bilan bog‘liq yana bir masala hozirgi nashrlarda to‘rtliklar o‘rnini sezilarli darajada o‘zgarib ketganligi va buning oqibatida joy nomlarining ham chalkashib ketganligidir.<sup>3</sup> Xususan, “Qo‘qondan Farg‘onaga” va “Qo‘qondan Isfaraga” qismlari kishi e’tiborini tortadi. 1974-yilda nashr qilingan “Qo‘qondan Farg‘onaga” qismi 11 bandni tashkil qilsa, adabiyotshunos Q.Pardayev uning yana 5 bandi mavjudligi, ammo nashrga kiritilmaganini ta’kidlaydi. Negaki saqlanayotgan 6352-raqamli qo‘lyozma bayozda asar 15 banddan iborat bo‘lganligini aytadi. Hozirgi nashrlardagi Farg‘onaga sayohat qismida shoir safari davomida kirib o‘tgan jami 6 ta qishloq kiritilib, u yerda duch kelgan voqeа-hodisalari tasvirlanadi. “Qo‘qondan Isfaraga” qismi esa ba’zi manbalarda 20, qolganlarida esa 21 bayt qilib nashr qilingan va 5 qishloq nomi ko‘rsatilgan. Bu ikki qisdagi sayohat davomida shoir Yayfan va Nursux nomli qishloqlarda 2 martadan bo‘ladi, ammo ikkisida ham bu joylar har xil tasvirlanadi:

*“Yayfan” agarchi xush havo,  
Odamlari yengilnamo.  
Bir-birlariga doimo  
Bo ‘lar-bo ‘lmas jang ekan. (“Qo‘qondan Farg‘onaga”)*

\*\*\*

*“Yayfan” kabi tolzor kam,  
Yo‘q soyasida zarra g‘am,  
Zebo sanam, qoshi qalam  
(Jononlari) bisyor ekan.  
Do ‘malari ham xo ‘b bajo  
Volosnoyi uhda buro  
Yurt ishlarini doimo*

<sup>2</sup> Q.Pardayev. Muqimiyy “Sayohatnoma”si matni tarixidan. Sharq yulduzi. 2015-yil, 4-son. 118-b.

<sup>3</sup> A.Madaminov. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” nashriyoti, 1990-yil, 9-noyabr (Muqimiyyning 140 yillik yubileyidagi ma’ruza materiallaridan)



*Xayriyat ko‘zlar ekan. (“Qo‘qondan Isfaraga”)*

Shoir qilgan sayohatlar orasida manzil va zamon jihatidan tafovut borligini inobatga olsak, bu, albatta, tabiiy hol. Chunki Muqimiy bir qishloqda uzoq turib qolmagan va u yer haqida to‘liq ma’lumot bilmagan hamda o‘zi duch kelgan voqeа yoki o‘sha joyga oid bo‘lgan xalq og‘zidan tushmagan biror hodisani qog‘ozga tushirgan. Aynan yuqoridagi “Yayfan” qishlog‘i haqidagi ikki xil fikr, ya’ni “Qo‘qondan Farg‘onaga” qismida sayohatida duch kelgan jang “Qo‘qon Isfaraga” safaridagi xalqparvar volosnoy kabi syujet va obrazlar bunga misol bo‘la oladi.

Muqimiy – kuztuvchan, ziyrak ijodkor. Uning qalamidan hattoki tabiat, o‘sha hudud iqlimi, joylashuvi ham chetda qolmagan. Jumladan, Yayfanning tabiat – daraxtlari kamligi, soya yo‘qligi, ob-havosi issiqligi shoirga saqar – do‘zaxni eslatadi yoxud har ikki safarida ham Nursuxning bog‘-rog‘lari dehqonchiligi, ayniqsa, uzumzorlari haqida o‘quvchiga ma’lumot beriladi.

### **MUHOKAMA**

Yana bir e’tiborli tomoni shundaki, geografik nuqtayi nazardan qaralsa, Farg‘ona va Isfara shaharlari umuman boshqa-boshqa joylarda joylashgan, ya’ni Farg‘ona Qo‘qonning sharqida, Isfara esa janubi-g‘arbida, hozirgi Tojikiston Respublikasi hududida joylashgan. Ikkisida ham shoir bir xil qishloqlardan o‘tib, sayohat qilgan. Mantiqan o‘ylab qaralganda, bu sal g‘alatiroq tuyuladi. Chunki Qo‘qondan Farg‘onaga borish uchun deyarli Shohimardonga boriladigan yo‘ldan o‘tiladi, ya’ni shoir borgan Oltiariqdan janubdagи Chimyonga emas, sharqqa qarab yurilsa, Farg‘onaga boriladi.

Tarixga yuzlansak, Muqimiy 1850-1903-yillarda yashab o‘tgan. Farg‘ona esa 1877-yili qurilishni boshlagan va 1904-yilda bitkazilgan. Shahar dastlab Yangi Marg‘ilon, 1907-yildan 1924-yilgacha rus sarkardasi generali M.D.Skobelev (xalq tilida Iskobil) sharafiga Skobelev deb nomlangan. Demak, hozirgi Farg‘ona shahri Muqimiy yashagan davrda mavjud bo‘lmagan. Qo‘qonning g‘arbiy yoki janubiy qismida Farg‘ona nomli qishloq bo‘lgan va shoir o‘sha yerga safar qilgan bo‘lishi mumkin. Shuningdek, Zebo Qobilova tomonidan nashrga tayyorlangan “Turkiy adabiyot durdonalari” turkumidagi “Muqimiy.Furqat.Hamza” kitobida ushbu qism nomi o‘zgartirilib, “Qo‘qondan Konibodomga” nomi ostida chop etilganini ko‘rish mumkin<sup>4</sup>. Demak, bizning yuqoridagi fikrimiz o‘z tasdig‘ini topmoqda va asarda nomi keltirilgan Farg‘ona hozirgi Farg‘ona shahri emas.

Shu bilan birgalikda, yangi topilgan “Isfara sayohati” qismida shoirning boshqa sayohatnomasida tilga olinmagan Chorko‘ va Chorqu qishloqlari mavjud. Bu nomi o‘zaro o‘xhash bo‘lgan qishloqlar aslida bir joy bo‘lishi ham mumkin, chunki

<sup>4</sup> Qobilova Z: Turkiy adabiyot durdonalari: Muqimiy .Furqat. Hamza. “O‘zbekiston” nashriyoti. – Toshkent: 2022. 250-b.



nafaqat xattotlar ko‘chirgan nusxalarda, balki shoirning shaxsan o‘zi tomonidan yozilgan qo‘lyozmalarda ham 2 xillilik mavjudligi muqimiyyunos olimlar tomonidan ham ta’kidlanadi. Ikkinchidan, bugungi kunda bu 2 nomdag‘i qishloq nomi xaritalarda uchramaydi yoki xaritaga kiritilmagan. Ammo hozirgi Tojikiston Respublikasi hududida Chorko‘x nomli qishloq mavjud bo‘lib, bizga noma’lum bo‘lgan o‘sha joy shu yer bo‘lishi mumkin degan farazni vujudga keltiradi:

*“Chorqu” g‘o‘zorin tor bil,  
Atrofini ko‘hsor bil,  
Panjshanba kun bozor bil,  
Bir-ikki-uch do‘kon ekan. (“Isfara sayohati” qismidan)*

Ushbu parchada keltirilgan “ko‘hsor” so‘zi tojikcha so‘z bo‘lib, “atrofi tog“ bilan o‘ralgan” degan ma’noni anglatadi. Buni hozirgi Chorko‘h bilan solishtirsak, “to‘rt tarafi tog“ ma’nosini beradi va fikrimiz haqiqatga yaqinligini ko‘rsatadi. Agarda chindan shunday bo‘lsa, hozirgi bu qishloq va Isfara orasidagi masofa yigirma kilometrni tashkil qiladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, Isfara sayohati Isfarada yakunlanib qolmagan, davom etgan.

“Sayohatnoma”ning ushbu yangi topilgan qismida ham Yayfan qishlog‘i mavjud bo‘lib, bunda ham qishloq avvalgilaridan farqli tasvirlanadi:

*Kun tobishida bu safar,  
Yo‘llar saqardan ham batar,  
Tog‘ ichra rahzan bachchag‘ar,  
Ko‘p elni qaqqhatkon ekan. (“Isfara sayohati” qismidan)*

Guvohi bo‘lganimizdek, bu qismda keltirilgan ta’rif ham avvalgilaridan farq qiladi. Ya’ni bu qismda shoir xalqparvar volost yoki aminni emas, elni qaqqhatayotgan badfe'l kimsani tasvirlaydi.

Yangi topilgan “Isfara sayohati” qismi haqida to‘xtalsak, u faqat Hodi Zarifning “Muqimiyyayoti va ijodi” nomli monografiyasida 11 band holida uchraydi va shoir Charxiy tomonidan 1953-yilda tojikistonlik G‘olib Yaqubzoda degan kishidan yozib olingan. Umuman olganda, shoir “Sayohatnoma”lari matni barcha joriy nashrlarda asliyatiga nomuvofiq keltirilgan<sup>5</sup>. Agarda hozirgi nashrlarni qayta ko‘zdan kechiradigan bo‘lsak, 1974-yilgi nashrda 10 band, 2022-yildagi nashrda esa 11 band holida uchraydi. Demak, asar matnshunos va manbashunoslар tomonidan yana-da chuqurroq tadqiq qilinsa, boshqa bir yangi qismi topilishi yoxud nashriyotda to‘ldirilgan bo‘sh joylar asl matn bilan qayta nashr qilinishi mumkin.

Muqimiyyayoti Navoiy va Mashrablardek o‘ziga xos maktab yarata oldi. Taxallusiga zid ravishda sayohatlarni sevgan shoir “Sayohatnoma”lari o‘z vaqtida

<sup>5</sup> Muhammadiyev A. Muqimiyyayoti va Muhyi “Sayohatnoma”larida an’ana va o‘ziga xoslik. “Oltin bitiglar” jurnali 2023-yil 4-son 84-b.



naziralarni maydonga keltiradi. Aynan Muqimiy “Sayohatnoma”si ruhida, uning vaznini va qofiya sistemasini, bandlar to‘rtliklar usulini saqlagan holda shoir Zavqiy ham o‘z “Sayohatnoma”sini yozadi. Yoki Muqimiyga javoban 1892-yil Furqat o‘zining Hindistondan Xitoyga qilgan sayohati davrida, shu bilan birgalikda, unga hamroh bo‘lgan shoir Tajalliyning “Sayohatnoma” yozganligi to‘g‘risida ma’lumotlar bor<sup>6</sup>.

## XULOSA

Muqimiy “Sayohatnoma”larining matnidagi chalkashliklar (masalan, “Qo‘qondan Shohimardonga” qismidagi she’rning “Qo‘qondan Isfaraga” qismida ham uchrashi), hajmining aniq emasligi hamda undagi geografik obyektlarga oid masalalarining hanuz aniq bir yechimi mavjud emasligi shoir ijodini yana-da to‘liq va jiddiy tadqiq qilish zaruratini tug‘diradi. Qo‘lyozmalarning barchasini batafsil o‘rganish hamda asarning tanqidiy matnini tayyorlash, “Sayohatnoma” namunalarini topish va ommaga taqdim qilish manbashunos va adabiyotshunoslar oldida turgan muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Muqimiy. Asarlar to‘plami. 1-tom O‘zSSR davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1960-yil. 29-b.
2. Pardayev Q. Muqimiy “Sayohatnoma”si matni tarixidan. Sharq yulduzi. 2015-yil, 4-son. 118-b.
3. Qobilova Z. “Tukiy adabiyot durdonalari: Muqimiy.Furqat.Hamza”. “O‘zbekiston” nashriyoti, Toshkent-2022. 250-b.
4. Muhammadiyev A. Muqimiy va Muhyi “Sayohatnoma”larida an’ana va o‘ziga xoslik. “Oltin bitiglar” jurnali. 2023-yil, 4-son. 84-b.
5. Karimov G‘. Mavlono Muqimiy. G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1974-yil. 29-b.
6. Madaminov A. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” nashriyoti, 1990-yil, 9-noyabr. (Muqimiyning 140 yillik yubileyidagi ma’ruza materiallaridan).

<sup>6</sup> G‘.Karimov. Mavlono Muqimiy. G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1974-yil, 29-b.